Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

# LIKVIDLIK — KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHI SIFATIDA

**Imomov Mirzabobur Toxirovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining magistranti. Toshkent, O‘zbekiston
Email: mirzabobur2004@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-0234-5007
https://doi.org/10.5281/zenodo.23158723

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Jizzaxdonmahsulotlari” AJning 2015–2025-yillardagi likvidlik holati va joriy aktivlarining korxona jami aktivlari shakllanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda joriy, tezkor va naqd likvidlik koeffitsiyentlari asosida korxonaning qisqa muddatli to‘lov qobiliyati yillar kesimida baholangan. Shuningdek, joriy aktivlar va balansdagi jami aktivlar o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil yordamida o‘rganilgan. Hisob-kitoblar natijasida joriy aktivlar bilan jami aktivlar o‘rtasida juda kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlanib, korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9809 ga teng bo‘lgan. Tadqiqot natijalari korxonaning likvidlik holati yillar davomida barqaror bo‘lmaganini, joriy aktivlar tarkibi va pul mablag‘larini samarali boshqarish esa moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.
**Kalit so‘zlar:** likvidlik, joriy aktivlar, joriy majburiyatlar, joriy likvidlik koeffitsiyenti, tezkor likvidlik koeffitsiyenti, naqd likvidlik koeffitsiyenti, tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag‘lari, korrelyatsiya, moliyaviy barqarorlik, jami aktivlar, to‘lov qobiliyati.

## LIQUIDITY AS A KEY INDICATOR OF AN ENTERPRISE’S FINANCIAL STABILITY

**Abstract:** This article analyzes the liquidity position of “Jizzaxdonmahsulotlari” JSC during 2015–2025 and the role of its current assets in the formation of the company’s total assets. The study evaluates the company’s short-term solvency over the years based on the current ratio, quick ratio, and cash ratio. In addition, the relationship between current assets and total assets reported in the balance sheet is examined using correlation analysis. The calculations revealed a very strong positive relationship between current assets and total assets, with the correlation coefficient equal to 0.9809. The results of the study indicate that the company’s liquidity position was not stable over the years, while effective management of the composition of current assets and cash resources is of significant importance for ensuring financial stability.
**Keywords:** liquidity, current assets, current liabilities, current ratio, quick ratio, cash ratio, inventories, cash and cash equivalents, correlation, financial stability, total assets, solvency.

**Kirish.** Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda uning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish imkoniyati muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan likvidlik korxonaning joriy moliyaviy holatini baholash va qisqa muddatli to‘lov qobiliyatini aniqlashda asosiy ko‘rsatkichlardan

biri hisoblanadi. Likvidlik darajasi joriy aktivlarning hajmi bilan bir qatorda ularning tarkibi, pul mablag‘lari va joriy majburiyatlar o‘rtasidagi nisbatga ham bog‘liq.

Korxona likvidligini baholashda joriy, tezkor va naqd likvidlik koeffitsiyentlaridan foydalanish uning qisqa muddatli moliyaviy imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, joriy aktivlar tarkibida tovar-moddiy zaxiralarning ulushi yuqori bo‘lgan holatlarda faqat joriy likvidlik koeffitsiyentiga tayanish korxonaning real to‘lov qobiliyati haqida to‘liq xulosa chiqarish imkonini bermaydi.

Mazkur tadqiqotda “Jizzaxdonmahsulotlari” AJning 2015–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida likvidlik holati tahlil qilindi. Tadqiqot davrida joriy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag‘lari va joriy majburiyatlar hajmida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan hamda likvidlik koeffitsiyentlarida ham yillar bo‘yicha tebranishlar aniqlangan.

**Material va metod.** Tadqiqot “Jizzaxdonmahsulotlari” AJning 2015–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida amalga oshirildi. Korxonaning likvidlik holatini baholashda joriy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag‘lari va joriy majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanildi. Likvidlikni baholashda joriy aktivlarning tarkibi va ularning qisqa muddatli majburiyatlar bilan nisbatini hisobga olish muhim bo‘lib, bunday yondashuv korporativ moliya bo‘yicha tadqiqotlarda keng qo‘llanadi. Ross, Westerfield va Jordan qisqa muddatli moliyaviy boshqaruvda pul mablag‘lari, likvidlik va zaxiralarni boshqarishni korxona moliyaviy faoliyatining muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatadi [1].

**Tadqiqotda, avvalo, joriy likvidlik koeffitsiyenti joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati orqali aniqlandi:**

**JLK = Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar**

Korxonaning joriy aktivlari tarkibida tovar-moddiy zaxiralarning salmog‘i yuqori bo‘lishi mumkinligi sababli likvidlikni chuqurroq baholash maqsadida **tezkor likvidlik koeffitsiyenti** ham hisobga olindi:

**TLK = (Joriy aktivlar − Tovar-moddiy zaxiralar) / Joriy majburiyatlar**

Bundan tashqari, korxonaning eng yuqori darajada likvid bo‘lgan aktivlari hisobidan qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyatini aniqlash uchun **naqd likvidlik koeffitsiyenti** qo‘llanildi:

**NLK = Pul mablag‘lari / Joriy majburiyatlar**

Mazkur ko‘rsatkichlar orqali korxonaning qisqa muddatli to‘lov qobiliyati yillar kesimida taqqoslandi. Bunday koeffitsiyentlar tizimidan foydalanish korxona likvidligini faqat joriy aktivlarning umumiy hajmi orqali emas, balki ularning tarkibi va pulga aylanish darajasi orqali baholash imkonini beradi. Aylanma kapitalni boshqarish jarayonida likvidlik va mablag‘lardan foydalanish samaradorligi o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligi Vernimmen va hammualliflar tomonidan ham ta’kidlangan [2].

Tadqiqotning keyingi bosqichida **korrelyatsion tahlil** usulidan foydalanilib, joriy aktivlar bilan korxona balansidagi jami aktivlar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi aniqlandi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti -1 dan +1 gacha bo‘lgan oraliqda baholanib, uning musbat va yuqori qiymati o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ifodalaydi. Hisob-kitoblar Microsoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi.

**Natijalar.**

**1-jadval.**

**Jizzaxdonmahsulotlari AJ korxonasining moliyaviy ko‘rsatkichlari**

| Yil (hisobot oxiri) | Joriy aktivlar (390-qator) (ming,so‘m) | Tovar-moddiy zaxiralar (140-qator) (ming,so‘m) | Pul mablag‘lari (320-qator) (ming,so‘m) | Joriy majburiyatlar (600-qator) (ming,so‘m) | Joriy likvidlik (Current Ratio) | Tezkor likvidlik (Quick Ratio) | Naqd likvidlik (Cash Ratio) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2015 | 144 066 875 | 60 004 108 | 2 036 983 | 160 085 430 | 0,90 | 0,53 | 0,0127 |
| 2016 | 165 000 652 | 73 713 312 | 2 925 593 | 180 758 403 | 0,91 | 0,51 | 0,0162 |
| 2017 | 153 235 015 | 51 956 777 | 765 402 | 178 734 051 | 0,86 | 0,57 | 0,0043 |
| 2018 | 160 515 514 | 60 725 785 | 312 720 | 182 838 749 | 0,88 | 0,55 | 0,0017 |
| 2019 | 207 091 523 | 108 309 359 | 1 710 864 | 234 980 153 | 0,88 | 0,42 | 0,0073 |
| 2020 | 221 820 677 | 123 472 799 | 2 501 372 | 233 892 554 | 0,95 | 0,42 | 0,0107 |
| 2021 | 166 427 621 | 85 152 506 | 368 923 | 169 367 095 | 0,98 | 0,48 | 0,00218 |
| 2022 | 265 750 049 | 189 717 526 | 36 647 | 203 142 786 | 1,31 | 0,37 | 0,00018 |
| 2023 | 277 864 461 | 184 256 630 | 9 366 | 314 731 610 | 0,88 | 0,30 | 0,00003 |
| 2024 | 346 449 280 | 243 684 546 | 23 835 | 372 973 111 | 0,93 | 0,28 | 0,00006 |
| 2025 | 251 761 810 | 125 162 952 | 1 979 285 | 273 821 777 | 0,92 | 0,46 | 0,007228 |

Jizzaxdonmahsulotlari AJning 2015–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili korxonaning joriy aktivlari, tovar-moddiy zaxiralari, pul mablag‘lari va joriy majburiyatlari hajmida yillar davomida sezilarli o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rsatadi. Tahlil davrida joriy aktivlar umumiy jihatdan o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, ayrim yillarda ularning kamayishi ham kuzatilgan. Shu bilan birga, joriy majburiyatlarning ham o‘zgaruvchanligi korxonaning qisqa muddatli to‘lov qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatgan. Likvidlik ko‘rsatkichlari dinamikasi korxonaning moliyaviy holati yillar kesimida bir xil bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Xususan, joriy, tezkor va naqd likvidlik koeffitsiyentlarida sezilarli tebranishlar kuzatilgan. Bu esa korxonaning joriy aktivlari tarkibi, pul mablag‘lari va qisqa muddatli majburiyatlar o‘rtasidagi nisbatni chuqurroq o‘rganishni talab etadi.




**1-rasm.** 2015-2024 yillardagi "Jizzaxdonmahsulotlari" AJ da joriy aktivlarning umumiy hajmini matematik modellashtirish

$y = 509974x^2 - 2E+09x + 2E+12$ $R^2 = 0,7139$ (1)

Ushbu matematik modelning ko‘rsatkichlar bilan mos kelishini ifodalovchi qiymati $R^2 = 0,7139$ bo‘lib, u matematik modelning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

**2-jadval.**

**"Jizzaxdonmahsulotlari" AJ da joriy aktivlarning umumiy balans hajmi o‘rtasidagi korrelatsion bog‘liqlik**

| Yil | Joriy aktivlar (ming,so‘m) | Balans umumiy aktivlar hajmi (ming,so‘m) | Korrelatsiya koeffitsiyenti |
|---|---|---|---|
| 2015 | 144 066 875 | 167 363 823 | 0,980896334 |
| 2016 | 165 000 652 | 188 562 499 | |
| 2017 | 153 235 015 | 181 667 602 | |
| 2018 | 160 515 514 | 191 107 073 | |
| 2019 | 207 091 523 | 254 935 865 | |
| 2020 | 221 820 677 | 273 104 483 | |
| 2021 | 166 427 621 | 229 760 080 | |
| 2022 | 265 750 049 | 323 804 201 | |
| 2023 | 277 864 461 | 327 200 195 | |
| 2024 | 346 449 280 | 381 560 844 | |
| 2025 | 251 761 810 | 282 435 324 | |

Jadval ma’lumotlari asosida “Jizzaxdonmahsulotlari” AJda joriy aktivlar bilan balansdagi jami aktivlar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Hisob-kitob natijasida korrelyatsiya koeffitsiyenti **r = 0,9809** ga teng bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkich Microsoft Excel dasturida =КОРРЕЛ(B15:B25;C15:C25) formulasi yordamida hisoblandi.

Korrelyatsiya koeffitsiyentining 1 ga yaqinligi joriy aktivlar va jami aktivlar o‘rtasida **juda kuchli ijobiy bog‘liqlik** mavjudligini ko‘rsatadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2015-yilda joriy aktivlar **144 066**

**875 ming so‘m**, balansdagi jami aktivlar esa **167 363 823 ming so‘m**ni tashkil etgan. 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda **346 449 280 ming so‘m** va **381 560 844 ming so‘m**gacha oshgan. 2025-yilda esa ikkala ko‘rsatkichda ham kamayish kuzatilgan.

Umuman olganda, korxonada joriy aktivlar hajmining o‘zgarishi jami aktivlar hajmining o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liq. **r = 0,9809** natija korxona aktivlari tarkibida joriy aktivlar muhim o‘rin egallashini va ularning o‘zgarishi jami aktivlar dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

**Munozara.** Tadqiqot davomida “Jizzaxdonmahsulotlari” AJning joriy aktivlari va balansdagi jami aktivlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Tahlil natijasida ushbu ikki ko‘rsatkich o‘rtasida juda kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Korrelyatsiya koeffitsiyentining **0,9809** ga teng bo‘lishi joriy aktivlar hajmidagi o‘zgarishlar jami aktivlar hajmidagi o‘zgarishlar bilan bir yo‘nalishda kechishini ko‘rsatadi.

Jadval ma’lumotlariga qaraganda, 2015–2024-yillar davomida korxonada joriy aktivlar va jami aktivlar hajmi umumiy hisobda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Ayniqsa, 2022–2024-yillarda joriy aktivlarning sezilarli darajada oshgani jami aktivlar hajmining ham ko‘payishida aks etgan. 2025-yilda esa joriy aktivlar **251 761 810 ming so‘m**, jami aktivlar esa **282 435 324 ming so‘m**ni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan pasayish kuzatilgan. Bu holat korxona aktivlari tarkibidagi o‘zgarishlar turli yillarda bir xil sur’atda kechmaganini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, korxonaning jami aktivlari shakllanishida joriy aktivlar muhim o‘rin tutadi. Joriy aktivlarning o‘zgarishi korxonaning umumiy aktivlari dinamikasi bilan chambarchas bog‘langan. Shu sababli korxona moliyaviy holatini baholashda joriy aktivlarning hajmi va tarkibidagi o‘zgarishlarni muntazam tahlil qilib borish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, korrelyatsiya koeffitsiyentining yuqori bo‘lishi ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi, biroq bu holat joriy aktivlarning o‘zgarishi bevosita jami aktivlarning o‘zgarishiga sabab bo‘lganini anglatmaydi. Buning uchun aktivlarning tarkibi, ularning moliyalashtirish manbalari va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarni ham qo‘shimcha ravishda tahlil qilish talab etiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari “Jizzaxdonmahsulotlari” AJda joriy aktivlar va jami aktivlar o‘rtasidagi bog‘liqlik yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

**Xulosa.** O‘tkazilgan tahlil natijalari “Jizzaxdonmahsulotlari” AJda likvidlik holati yillar davomida barqaror bo‘lmaganligini ko‘rsatdi. 2015–2025-yillarda joriy aktivlar va joriy majburiyatlar hajmida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lib, bu holat joriy, tezkor va naqd likvidlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishida ham namoyon bo‘lgan.

Tahlil davomida joriy aktivlarning jami aktivlar hajmi bilan juda kuchli ijobiy bog‘liqligi aniqlandi. Korrelyatsiya koeffitsiyentining **r = 0,9809** ga teng bo‘lishi korxona aktivlari tarkibida joriy aktivlar muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Umuman, korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun joriy aktivlar tarkibini maqbullashtirish, tovar-moddiy zaxiralar hajmini nazorat qilish va pul mablag‘larining yetarliligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Likvidlik ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish imkoniyatini oldindan baholash va moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jordan, B. D. (2010). Fundamentals of corporate finance (9th ed.). McGraw-Hill/Irwin.
2. Vernimmen, P., Quiry, P., Dallocchio, M., Le Fur, Y., & Salvi, A. (2017). Corporate finance: Theory and practice (5th ed.). John Wiley & Sons.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. (n.d.). Jizzaxdonmahsulotlari AJ: Moliyaviy ma’lumotlar. Openinfo.uz.** Openinfo.uz — Jizzaxdonmahsulotlari AJ moliyaviy ma’lumotlari